

Innovatsion rivojlanish vazirligi,  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
va Yoshlar ishlari agentligining  
2022-yil "\_\_\_\_"- iyuldagi  
\_\_\_\_\_-son qaroriga 2-ilova

**“ILM INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT” VIDEOROLIKLAR  
KO‘RIK-TANLOVINI TASHKIL ETISH, O‘TKAZISH VA G‘OLIBLARNI  
TANLAB OLISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI  
NIZOM**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu Nizom yoshlarning zamonaviy texnika va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularda innovatsion tafakkur va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladigan **“Ilm innovatsiya va taraqqiyot”** ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda ko‘rik-tanlov deb yuritiladi) tashkil etishni, o‘tkazish tartibini, arizalarni qabul qilish hamda baholash mezonlari va metodikasini belgilaydi.

2. Mazkur ko‘rik-tanlov O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etiladi, o‘tkaziladi hamda g‘oliblari aniqlanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

3.1. **“Ilm innovatsiya va taraqqiyot” videoroliklar ko‘rik-tanlovi** – mamlakatimiz rivojlanishi uchun ustuvor bo‘lgan sohalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ilmiy yechim izlab topishda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishlari uchun ularning tashabbuslari va takliflariga davlat e‘tiborini yanada kuchaytirish maqsadida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlov.

3.2. **Tashkilotchilar** – O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda tashkilotchilar deb yuritiladi).

3.3. **Ishtirokchi** – ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi va ish joyidan qat‘iy nazar, 16 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (keyingi o‘rinlarda ishtirokchi).

3.4. **Ko‘rik-tanlov rasmiy veb sayti** – ko‘rik-tanlov to‘g‘risidagi ma‘lumotlar joylashtirib boriladigan, ishtirok etmoqchi bo‘lgan yoshlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ishtirokchilarning arizalarini yig‘ish uchun tashkil etilgan va [www.yoshlarakademiyasi.uz](http://www.yoshlarakademiyasi.uz) adresi orqali faoliyat yuritadigan axborot resursida ko‘rik-tanlovga doir barcha yangiliklar joylashtiriladi.

3.5. **Ko‘rik-tanlov komissiyasi** – ko‘rik-tanlov tashkilotchisi tomonidan ko‘rik-tanlov boshlanishidan oldin tashkil etiladigan va tashkilotchining vakillarini, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan vakillardan tashkil topgan yoshlarni baholash va g‘oliblarni aniqlash vakolatiga ega kollegial organ.

3.6. **G‘olib** – baholash mezonlari asosida ko‘rik-tanlov komissiya tomonidan eng yuqori ball qo‘yilgan va biron - bir yo‘nalish bo‘yicha eng yaxshi videorolik tayyorlagan ishtirokchi.

4. Ko‘rik-tanlov **maqsadi** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda yoshlar bilan “mahallabay” ishlash, ular o‘rtasida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 7-iyundagi 310-son qarori ijrosini ta‘minlash.

5. Ko‘rik-tanlov tashkilotchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ko‘rik-tanlov qoidalari va shartlari, ro‘yxatdan o‘tish shartlari, tanlovda qatnashish uchun ariza berish to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar tanlov rasmiy vebsaytga joylashtiriladi.

5.1. Tashkilotchilar tanlov qoidalarini o‘z ixtiyori bilan bir tomonlama o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va ushbu o‘zgartirishlar tanlov rasmiy vebsaytida e‘lon qilish orqali amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar ko‘rik-tanlov rasmiy vebsaytida e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

## **II. KO‘RIK-TANLOV YO‘NALISHLARI**

6. Ko‘rik-tanlovda videoroliklar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinadi:

- 6.1. Buyuk ajdodlar merosi
- 6.2. Men ixtirochiman
- 6.2. Eng kreativ animatsion rolik

## **III. KO‘RIK-TANLOV ISHTIROKCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

7. Ko‘rik-tanlovda ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar:

- 7.1. 16 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan iqtidorli yoshlar;
  - har bir ishtirokchi faqat bir yo‘nalishda, bitta videorolik bilan ishtirok etishi mumkin.
  - videorolikni yaratishda boshqa roliklardan foydalanish qat‘iyan man etiladi.
  - har bir ishtirokchi videorolik uchun javobgar.


- ikkita ishtirokchi birgalikda yoki jamoa bo‘lib ishtirok etishi taqiqlanadi.

7.2. Taqdim etiladigan videoroliklar uchun quyidagi talablar mavjud:



- davomiyligi eng kamida 1:30 dan 3:00 daqiqagacha davom etishi shart.

- formati mp4 (FullHD 1920\*1080), (1080R), (albom) shaklda bo‘lishi lozim.

**Shunday videoroliklar qabul qilinadi:**



**Bunday videoroliklar qabul qilinmaydi:**



- ovoz va video sifati yuqori darajada bo‘lishi kerak.

7.3. Ko‘rik-tanlovga jo‘natilgan videoroliklar quyidagi maqsad va vazifalarni o‘z ichiga olishi kerak:

- aholi va yoshlar o‘rtasida innovatsion g‘oyalarni targ‘ib etishi;

- kundalik va turmush tarziga qo‘llay oladigan va qulay tushunarli bo‘lishi;

- kreativ g‘oyalarga ega bo‘lishi;

- Videorolikda qonunchilikka va odob-ahloqqa zid bo‘lgan lavhalar bo‘lmasligi lozim.

#### **IV. KO‘RIK-TANLOVNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TARTIBI**

8. Ko‘rik-tanlov har bir ishtirokchiga uning yo‘nalishlaridan biriga bag‘ishlangan va tegishli sohadagi muammolarni hal qilish uchun videoroliklarni ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

9. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish tartibi:

Ishtirokchilar tanlov rasmiy veb-saytida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni to‘ldirishlari lozim.

9.1. Ko‘rik-tanlovga 1-avgustdan start beriladi:

9.2. Ko‘rik-tanlov 1-avgustdan 30-sentyabr sanasiga qadar davom etadi:

9.3. Ishtirokchilar tomonidan belgilangan muddatlarda topshirilgan videoroliklar 1 oy muddatda ko‘rik-tanlov komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

9.4. “Ko‘rik-tanlov komissiyasi tomonidan g‘olib deb topilgan ishtirokchilarni taqdirlash marosimi 2022-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tadi.

## V. KO‘RIK-TANLOV G‘OLIBLARINI ANIQLASH

**10.** Ko‘rik-tanlov davomida ishtirokchi ariza topshirishda tanlangan yo‘nalish doirasida videorolik tayyorlashi kerak.

**11.** Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha tayyorlangan videorolik ko‘rik-tanlov komissiyasiga, ko‘rik-tanlovning yakuniy kuniga qadar ko‘rik-tanlov nizomiga muvofiq ko‘rsatilgan vaqtdan kechiktirmasdan taqdim etilishi zarur.

**12.** Ko‘rik-tanlovda g‘olib bo‘lganlarni aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda taqdim etilgan videoroliklar Innovatsion rivojlanish vazirligining tegishli bo‘linmasi tomonidan texnik ekspertizadan o‘tkaziladi. Bunda ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va videoroliklar ushbu nizomning 7.1-, 7.2- va 7.3-bandlarida belgilangan talablarga muvofiq topshirilganligi tekshiriladi.

2-bosqichda texnik ekspertizadan saralab olingan videoroliklar ko‘rik-tanlov komissiyasi tomonidan mazkur nizomning 14-bandida belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan g‘oliblar aniqlanadi.

**13.** Ko‘rik-tanlov komissiyasi tomonidan baholash uchun taqdim etilgan videoroliklar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- videorolik reglament talablariga javob berishi;
- videorolik ilmiy asoslangan va kreativ yondashilgan bo‘lishi;
- videorolik e‘lon qilingan tanlov yo‘nalishlariga mos kelishi kerak.

**14.** Videoroliklarni baholash ko‘rik-tanlov ishchi guruh a‘zolari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan amalga oshiriladi.

<b>№</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Balgacha</b>
1.	Videorolikda ko‘rik-tanlov yo‘nalishi mazmun-mohiyatini to‘laqonli ochib berilganligi	20 ballgacha
2.	Videorolikning mazmuni, unga bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni kreativ nuqtai nazardan aks etganlik darajasi	15 ballgacha
3.	Videorolikdagi mantiqiylik, ishtirokchining dunyoqarashi fikrlash doirasi va e‘tiborni jalb qila olishi	15 ballgacha
4.	Videorolik o‘ziga xos bo‘lishi va kundalik hayotda foydalanish uchun qulay bo‘lishi	15 ballgacha
5.	Videorolikni sifatli va belgilangan vaqtda to‘liq ochib berilganligi (ovoz, video, sifat)	20 ballgacha
6.	Videorolikni jozibadorligi, boshqa videolardan ajralib turishi	15 ballgacha
	<b>Jami:</b>	<b>100</b>

**15.** Yakuniy baho ishtirokchi har bir baholash mezonini bo'yicha to'plagan ballarini qo'shish orqali hisoblanadi.

**16.** Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan videoroliklarni yakuniy natijalari bo'yicha ko'rik-tanlov komissiyasi har bir yo'nalish uchun g'oliblar aniqlanadi.

**17.** Har bir yo'nalish bo'yicha g'oliblarni aniqlash ko'rik-tanlov komissiyasining har bir a'zosi tomonidan videoroliklarni alohida baholash orqali amalga oshiriladi.

**18.** Baholar teng bo'lgan taqdirda, ko'rik-tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

**19.** Baholash natijalariga ko'ra tashkilotchi ko'rik-tanlov komissiyasi qarorining bayonnomasini tuzadi, u ko'rik-tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

**20.** G'oliblarini taqdirlash belgilangan muddatlarda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

**21.** G'oliblarni rag'batlantirish.

- har bir yo'nalish bo'yicha uchta g'olib aniqlanadi. (1-2-3-o'rin)

a) 1-o'rin uchun — 15 million pul mukofoti, g'oliblik statuetskasi va maxsus sertifikat

b) 2-o'rin uchun — 10 million pul mukofoti, g'oliblik statuetskasi va maxsus sertifikat

d) 3-o'rin uchun — 5 million pul mukofoti, g'oliblik statuetskasi va maxsus sertifikat

Mazkur mukofotlar har bir yo'nalish bo'yicha alohida topshiriladi.

## **VI. YAKUNIY QOIDALAR**

**22.** Ko'rik-tanlovda ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalar va talablar to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi ko'rik tanlovda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

**23.** Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash va / yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror to'g'ridan-to'g'ri va faqat ko'rik-tanlov tashkilotchilari tomonidan qabul qilinadi.